SIRDARYO VILOYATI BOYOVUT TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 6-sentabr | 302-9-123-Q/24 | Boyovut tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-avgustdagi “Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-124-sonli Farmoni hamda Sirdaryo viloyati hokimining 2024-yil 30-avgustdagi 278-9-0-Q/24-sonli Qarori ijrosi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-avgustdagi “Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-124-sonli Farmoni hamda Sirdaryo viloyati hokimining 2024-yil 30-avgustdagi 278-9-0-Q/24-sonli Qarori ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6, 25-moddalariga muvofiq qaror qilaman:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-avgustdagi PF-124-sonli Farmoni hamda Sirdaryo viloyati hokimining 2024-yil 30-avgustdagi 278-9-0-Q/24-sonli Qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Farmonga muvofiq

Quyidagilar fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llabquvvatlashning asosiy yo‘nalishlari etib belgilanganligi:

davlat va jamiyat hayotida fuqarolik jamiyati institutlari faolligini yanada oshirish hamda ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’naviy va gumanitar sohalarni rivojlantirishda ularning salohiyatidan to‘laqonli foydalanish;

jamiyat manfaatlari va aholining haqiqiy ehtiyojlarini ko‘zlagan, joylarda saqlanib qolayotgan dolzarb muammolarni hal etishga qaratilgan tashabbuslarni ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish;

davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasida o‘zaro manfaatli ijtimoiy sheriklikni yanada rivojlantirish;

fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini rivojlantirishga ko‘maklashish yo‘lida ta’sirchan jamoatchilik nazorati olib borilishini rag‘batlantirish;

fuqarolik jamiyati institutlarining xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarini yo‘lga

qo‘yish hamda ularning xorijdagi uyushmalari bilan hamkorligini mustahkamlash;

fuqarolik jamiyati institutlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularga o‘z faoliyatini amalga oshirishi uchun qulay tashkiliy-huquqiy sharoitlar yaratish;

Oliy Majlis, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi hamda mahalliy kengashlar huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondlarini qo‘shib yuborish va ularning negizida Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi (keyingi o‘rinlarda – Fond) hamda uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi alohida bo‘linmalarini (keyingi o‘rinlarda – alohida bo‘linmalar) tashkil etish;

Fond mablag‘larini boshqarish bo‘yicha Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a’zolaridan iborat bo‘lgan parlament palatalari vakillari har yili navbatma-navbat raislik qiladigan Parlament komissiyasini (keyingi o‘rinlarda – Parlament komissiyasi) tuzish, uning faoliyatiga manfaatdor vazirlik va idoralar hamda faol jamoatchilik vakillarini jalb etish;

fuqarolik jamiyati institutlari vakillari va tashabbuskor fuqarolarni “Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qo‘shgan hissasi uchun” ko‘krak nishoni bilan taqdirlash vakolatini Parlament komissiyasiga o‘tkazish;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va mahalliy kengashlar huzurida ularning vakolatiga kiradigan vazifalarni samarali amalga oshirishga ko‘maklashuvchi fuqarolik jamiyati institutlari vakillaridan iborat bo‘lgan maslahat guruhlari faoliyatini jamoatchilik asosida yo‘lga qo‘yish;

Fond jami 45 ta, shu jumladan, ijro etuvchi devon – 17 ta, alohida bo‘linmalar –28 ta shtat birligidan iborat bo‘lishi;

Fond ijro etuvchi devoni faoliyatini saqlash, xodimlarining mehnatiga haq to‘lash xarajatlari O‘zbekiston Respublikasining respublika budjeti, alohida bo‘linmalarning xuddi shunday xarajatlari tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari hisobidan qoplanishi;

Fond faoliyatini tashkil etish tartibi va uning xodimlari mehnatiga haq to‘lash shartlari Oliy Majlis palatalari tomonidan belgilanishi;

2024-yil 1-oktabrdan 2027-yil 1-oktabrga qadar Fond mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladigan davlat grantlari va davlat ijtimoiy buyurtmalari loyihalari doirasida to‘lanadigan quyidagi soliq turlari bo‘yicha belgilangan soliq stavkalari 50 foizga kamaytirilganligi;

“Ijtimoiy himoya yagona reyestri”ga kiritilgan oilalar a’zolariga homiylik tashkilotlari tomonidan soliq davri mobaynida to‘g‘ridan-to‘g‘ri beriladigan pul mablag‘lari tarzidagi homiylik xayriyalarining soliq solinmaydigan miqdorini o‘n besh million so‘mdan bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravarigacha oshirilganligi;

2025-yil 1-yanvardan boshlab nogironligi bo‘lgan shaxslar, faxriylar, xotinqizlar hamda bolalar jamoat birlashmalarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun belgilangan davlat bojlari miqdorini ikki baravarga kamaytirilgan holda undirilishi;

bir kalendar yilda bank hisobvaraqlarida pul aylanmasi bo‘lmagan jamoat fondlari uchun ushbu kalendar yilda o‘z faoliyatini auditorlik tekshiruvidan o‘tkazish ixtiyoriy tartibda amalga oshirilishi;

har yili kamida bir marotaba vazirliklar, idoralar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan sohaviy va hududiy fuqarolik jamiyati institutlari vakillari bilan ochiq muloqot o‘tkazilishi;

fuqarolik jamiyati institutlariga tegishli soha va tarmoqlarda mavjud muammolarning ta’sirchan yechimini nazarda tutuvchi tashabbusli loyihalarni amalga oshirish uchun davlat ijtimoiy buyurtmasini olish to‘g‘risida manfaatdor davlat organiga taklif kiritish huquqi beriladi. Bunda tashabbusli loyiha belgilangan tartibga muvofiq davlat organi huzuridagi jamoatchilik kengashi tomonidan ijobiy baholangan taqdirda, uning tashabbuskoriga davlat organining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining ming baravarigacha miqdorda to‘g‘ridanto‘g‘ri shartnoma tuzish yo‘li bilan ijtimoiy buyurtma berilishi mumkinligi;

davlat organlari huzuridagi jamoatchilik kengashlari (keyingi o‘rinlarda jamoatchilik kengashlari) raislari fuqarolik jamiyati institutlari vakillari orasidan tasdiqlanishi;

har yili jamoatchilik kengashlarining faoliyati samaradorligi baholanishi va uning natijalari e’lon qilinishi;

jamoatchilik kengashlarining faol a’zolari davlat organining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan moddiy rag‘batlantirib borilishi;

Adliya vazirligi fuqarolik jamiyatini rivojlantirish markazining tugatish komissiyasi bilan birgalikda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish markazining mol-mulki ushbu sohada faoliyat yuritayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari ehtiyoji uchun yo‘naltirilishi;

Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari har yili Parlament komissiyasining asoslantirilgan hisob-kitoblariga ko‘ra fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq xarajatlarni davlat budjeti parametrlarida hisobga olinishi nazarda tutilsin.

3. Tuman hokimligi hamda korxona, tashkilotlar:

ikki oy muddatda o‘zlarining huzuridagi jamoatchilik kengashlari faoliyatini qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hamda mazkur Farmonda nazarda tutilgan talablar asosida qayta tashkil etilishini;

“Yuksalish” harakatiga uning so‘roviga asosan jamoatchilik kengashlari faoliyatiga doir ma’lumotlarni taqdim etib borilishini ta’minlasin.

4. Qarorning ijrosini samarali tashkil etishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib tuman Adliya bo‘limi (O.Xolmatov) belgilansin.

5. Qaror ijrosini nazorat qilish va mas’ul ijrochilarning faoliyatini muvofiqlashtirish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari U.Saribayev hamda tuman hokimining o‘rinbosari A.Alashukurov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **D.Uralova**